O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SIRDARYO VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 28-avgust | 358-9-0-Q/25 | Sirdaryo viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustdagi “Sudlar faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta’minotini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-140-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustdagi “Sudlar faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta’minotini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-140-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6 va 21^1-moddalariga asosan **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustdagi “Sudlar faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta’minotini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-140-sonli Farmoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni bilan:

sudlar faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish hamda raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish, shuningdek, sudlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berishning kelgusi yillardagi ustuvor maqsadlari belgilanganligi;

Oliy sud, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligining sudlar faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirishga qaratilgan “Raqamli sud” konsepsiyasini bosqichma-bosqich amalga oshirish haqidagi taklifiga rozilik berilganligi;

2025-2027-yillarga mo‘ljallangan sud sohasini raqamlashtirish va odil sudlov jarayonlariga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish dasturi 1-ilovaga;

2025-2030-yillarda sud binolarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

2025-2030-yillarda sud sohasini raqamlashtirish hamda sud binolarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash ishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika va hududiy ishchi komissiyalar 3 va 3a-ilovalarga muvofiq tarkibda tashkil etilganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga 4-ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi;

Oliy sud, Sudyalar oliy kengashi va Savdo-sanoat palatasining 2026-yil 1-yanvardan boshlab iqtisodiy sudlar tizimida iqtisodiy sudlarni maqbullashtirish orqali tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudlarini tugatish hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida tumanlararo iqtisodiy sudlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullanganligi inobatga olinsin.

3. 2025-2030-yillarda sud sohasini raqamlashtirish hamda sud binolarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash ishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha viloyat ishchi komissiyasi tarkibi (keyingi o‘rinlarda – viloyat komissiyasi) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Viloyat komissiyasiga hududlar kesimida amalga oshirilayotgan ishlarni muntazam ravishda tanqidiy muhokama qilib, kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan mas’ul rahbarlarga nisbatan choralar ko‘rib borish topshirilsin.

5. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (R.Nishanov), Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi (D.Ruzmatov) yangi sud binolarini qurish uchun Oliy sud bilan kelishilgan holda qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan yer maydonlarini tanlab, belgilangan tartibda ajratish choralarini ko‘rsin.

6. Mazkur qaror ijrosi nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Sirdaryo viloyati hokimi v.b **E.Turdimov**

Sirdaryo viloyati hokimining
2025-yil 28-avgustdagi
358-9-0-Q/25-son qaroriga
1-ilova

2025-2030-yillarda sud sohasini raqamlashtirish hamda sud binolarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash ishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha viloyat ishchi komissiyasi tarkibi

E.Turdimov	-	Viloyat hokimi, *ishchi komissiya raisi*
A.Xudoyberdiyev	-	Viloyat sudi raisi, *ishchi komissiya raisining o‘rinbosari*
T.Qodirqulov	-	Viloyat Ma’muriy sudi raisi
D.Qobulov	-	Viloyat prokurorining o‘rinbosari
A.Xidirov	-	Viloyat hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari
D.Ruzmatov	-	Viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi boshlig‘i
N.Kurbanov	-	Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari
K.Ernazarov	-	Davlat aktivlarini boshqarish agentligining hududiy boshqarmasi boshlig‘i
Sh.Ruziqulov	-	Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi boshlig‘i
R.Nishanov	-	Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi boshlig‘i
S.Mirzakarimov	-	Viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida hududiy nazorat qilish inspeksiyasi boshlig‘i
Y.Dexkanov	-	“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Sirdaryo hududiy filiali direktori
J.Xidirov	-	“Hududgaz Sirdaryo” gaz ta’minoti filiali rahbari
M.Xidirov	-	Oliy sud huzuridagi Sudlar faoliyatini ta’minlash departamentning Sirdaryo viloyati hududiy bo‘limi boshlig‘i, *ishchi komissiya kotibi*

Izoh: viloyat ishchi komissiyasi a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklatilgan shaxslar kiritiladi.